

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ZINATDINOVA GAWHAR ILALATDINOVNA**

**HOZIRGI QORAQALPOQ LIRIKASIDA XRONOTOP POETIKASI  
(I.Yusupov, Sh.Seyitov, S.Ibragimov, B.Genjemuratov asarlari misolida)**

**10.00.07 – Adabiyot nazariyasi**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Zinatdinova Gawhar Palatdinovna**

Hozirgi qoraqalpoq lirikasida xronotop poetikasi  
(I.Yusupov, Sh.Seyitov, S.Ibragimov, B.Genjemuratov asarlari misolida)..... 3

**Зинатдинова Гаўхар Илалатдиновна**

Поэтика хронотопа в современной каракалпакской лирике  
(на примере произведения И.Юсупова, Ш.Сейитова, С.Ибрагимова,  
Б.Генжемуратова)..... 21

**Zinatdinova Gaukhar Palatdinovna**

Chronotope poetics in modern Karakalpak lyric poetry  
(on the example of the works of I.Yusupov, Sh.Seyitov, S.Ibragimov,  
B.Genjemuratov) ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ZINATDINOVA GAWHAR ILALATDINOVNA**

**HOZIRGI QORAQALPOQ LIRIKASIDA XRONOTOP POETIKASI  
(I.Yusupov, Sh.Seyitov, S.Ibragimov, B.Genjemuratov asarlari misolida)**

**10.00.07 – Adabiyot nazariyasi**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PHD/Fil2360 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahife ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sagidullaeva Djamilya Nurullaevna  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jo'raqulov Uzoq Haydarovich  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Tlewniyazova Gulmira Bayniyazovna  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent


Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpog davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «13» 09 kungi soat 14<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpog davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (197 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «22» 08 kuni tarqatildi.  
(2024 yil «22» 08 daqiqa 1 raqamli reestr bayonnomasi).



K.K. Orazimbetov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d., professor

D.B. Seytkasimov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

Q.Q. Jarimbetov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotida badiiy matn, jumladan lirik matn talqinida turlicha yondashuvlar shakllangan. Binobarin, jahon adabiyotshunosligida shoirning olamni, zamon va makonni anglashi, shu asosda lirik qahramon ongida, qalbida xronotopning badiiy modelining yaratilishini tadqiq qilishda kognitiv qarashlar yuzaga keldi. Kognitiv badiiy matn talqinida inson ongi, ong osti omillari muhim adabiy hodisa sifatida baholanadi, an'anaviy qarashlar tizimlashtiriladi. Lirik matnni tahlil qilishning yangi usullarini tadbiq etish asosida inson ongining mental xususiyatlarini xronotop kategoriyasiga bog'liq o'rganish hozirgi kognitiv adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikka xronotop termini badiiy zamon va makon birligini ifodalovchi metafora sifatida rus olimi M.Baxtin tomonidan kiritildi. Hozirgi jahon adabiyotshunosligida xronotop bitta yaxlit tizim sifatida (amerika, ingliz), badiiy zamon va makon alohida tushunchalar sifatida (rus), syujet-kompozitsion birlik sifatida (qozoq), xronotop va topoxronos nuqtai nazaridan (o'zbek) tadqiq qilinmoqda. Mazkur nuqtai nazarlar asosida lirik xronotopning xususiyatlarini, badiiy vazifalari va turlarini hozirgi qoraqalpoq lirikasi misolida o'rganish katta ahamiyatga ega.

«Mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olishda»<sup>1</sup> milliy adabiyotimiz, shu jumladan lirikamizning eng sara namunalarini zamonaviy kognitiv nuqtai nazar asosida tadqiq qilish, shoirlarimizning xronotopga munosabatini xalqimizning dunyoqarashi, etnopsixologiyasi bilan yaxlit bog'liqligini ilmiy asoslash zamonaviy adabiyotshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, shuningdek, 2020-yil 23-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida»gi 637-son Qonuni va sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda joriy doktorlik dissertatsiyasi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Joriy dissertatsion ish Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табриги // Халқ сўзи, 2018 йил, 7 август // <https://xs.uz>

tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Zamon va makon falsafiy tushunchalar sifatida Aristotel, Platon, XVII-XVIII asrlarda Evropa olimlari D.Lokk, I.Kant, G.Lessing, I.Gerder, G.Gegellar tomonidan tadqiq qilindi. Adabiyotta badiiy zamon va makonning birligi ilk marotaba XX asrning birinchi yarmida rus olimi M.M.Baxtin ilmiy asarlarida «xronotop» termini bilan ataldi<sup>2</sup>. Taniqli olimlar V.A.Uspenskiy, D.S.Lixachev, N.K.Geylarning ilmiy tadqiqot ishlarida<sup>3</sup> xronotopning bir yaxlit tizim ekanligi, badiiy asar kompozitsiyasida tutgan o‘rni masalalari talqin qilingan.

Keyingi davrlarda bu masala rus (Z.Turaeva, V.E.Xalizev, A.B.Esin, S.Zotov, N.Razumova, S.E.Kim, N.Lovchinskiy, E.Kulikova)<sup>4</sup>, o‘zbek (M.Umarova, N.Shodiev, B.Turaeva, U.Jo‘raqulov, O‘.Nazarov, D.Xursanov, Q.Yulchiev)<sup>5</sup>, qozoq (E.Tursunov, B.Maytanov, S.Ananyeva)<sup>6</sup> olimlari tomonidan har xil ilmiy aspektlarda tadqiq qilindi. Shuningdek, qoraqalpoq adabiyotshunosligida epik xronotop masalasi adabiyotshunos olimlar P.Nurjanov, M.Mambetova, I.Mambetov, J.Sagidullaeva, J.Qaniyazovalarning<sup>7</sup>, lirik xronotop Q.Orazimbetov, E.Eshniyazova, A.Dosimbetova, M.Orazimbetova, G.Tleuniyazovalarning<sup>8</sup> ilmiy tadqiqot ishlarida

<sup>2</sup> Бактин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет – Москва: Художественная литература, 1975.

<sup>3</sup> Успенский Б.А. Точка зрения в плане пространственно-временной характеристики. // Семиотика искусства – Москва: Языки русской культуры, 1995; Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы – Москва: Наука, 1979; Гей Н.К. Время и пространство в структуре произведения. – Москва: Наука, 1975.

<sup>4</sup> Тураева З. Категории времени. Время грамматическое и время художественное (на материале английского языка). – Москва: Высшая школа, 1979; Хализев В.Е. Время и пространство. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999; Esin A.B. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта. Наука, 2000; Zotov S. N. Художественное пространство — мир Лермонтова. Автореф. дис. док. филол. наук. – Ставрополь, 2001; Razumova N. E. Пространственная модель мира в творчестве А. П. Чехова: Автореф. дис. док. филол. наук. – Томск, 2001; Kim E.S. Художественное пространство в лирике Б. Пастернака. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Москва, 2001; Lovchinskiy N. Образы пространства в современной русской постмодернистской поэзии. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Волгоград, 2010; Kulikova E. Динамические аспекты пространства в лирике акмеистов: лейтмотивная поэтика. Автореф. дис. док. филол. наук. – Новосибирск, 2011.

<sup>5</sup> Umarova M. Тарихий драмада бадий вақт концепцияси (Шекспир ва Фитрат драмалари мисолида). Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Шодиев Н., Тўраева Б. Бадий вақт ва унинг системаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2012; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент, Гафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2015; Алишер Навоий «Хамса»сида хронотоп поэтикаси. филол. фан. бўйича фан доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Тўраева Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси (О. Ёқубов ва П. Қодиров романлари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Назаров Ў. Омон Мухтор романларида бадий хронотоп муаммоси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеърларида хронотоп поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2020; Юлчиев Қ. Ҳозирги ўзбек шеърларида макон ва вақт категорияси (кичик лирик шеърлар мисолида). Филология фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2021.

<sup>6</sup> Турсунов Е.Д. Художественное время и пространство в айтысе. // Традиции и новаторство в художественном освоении действительности. – Алматы: Наука, 1981; Майтанов Б. Қазақ романы және психологиялық талдау. – Алматы: 1996; Ананьева С.В. Проблема художественного времени и ее воплощение в развитии сюжета. // Вестник КазГУ. – Алматы, 2000, № 2.

<sup>7</sup> Nurjanov P. Тарихий романларда көркем ўақыт ҳам кеңілік. // Эмиўдәрья, 2000, №6; Nurjanov P., Mambetova M., Mambetov I. Пространство и время в современном каракалпакском романе. // Актуальные проблемы современного исследования. – Москва, 2006, №6; Қаниязова Ж. Ш. Сейитов романларында характер жаратыў шеберлиги («Халқабад» роман-тетралогиясы мысалында). PhD дисс. – Нөкис, 2018; Сагидуллаева Ж. Қарақалпақ повестьлеринде стильлик изленислер (1980-жыллар повестьлери мысалында). Фил. илим. канд. дисс. – Нөкис, 2010.

<sup>8</sup> Оразымбетов Қ. Ҳазирги дәўирдеги карақалпақ лирикасында көркемлик излениўшендик. – Нөкис: Билим, 1992; Ешниязова Э. Зулфия ханым поэзиясында ўақыт мәселесинин сәўлелениўи. // ӨзРИАҚҚБ хабаршысы, 2011,

ma'lum darajada o'rganildi. Lekin, ularda xronotop, jumladan, hozirgi qoraqalpoq lirikasida xronotop poetikasi masalasi ilmiy tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganilmagan. Mazkur masalani maxsus tadqiq etish zarurati bor, sababi, hozirgi qoraqalpoq adabiyoti dunyo adabiyoti bilan teng qadam bosishga intilmoqda. Mualliflar o'z badiiy asarlarida dunyo adabiyoti yutuqlari, shu jumladan zamon va makon poetikasini teran o'rganib va o'zlashtirib, o'z badiiy asarlarida ijodiy yondashmoqda. Hozirgi adabiy jarayondagi bu badiiy izlanishlar zamon va makon poetikasini maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganishni taqazo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qoraqalpoq davlat universiteti «Qoraqalpoq adabiyoti» kafedrasida olib borilayotgan «Qoraqalpoq adabiyotini o'rganish va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari», «Hozirgi qoraqalpoq adabiyotining dolzarb masalalari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hozirgi qoraqalpoq lirikasida xronotopning badiiy tabiati va xususiyatlarini taniqli shoirlar I.Yusupov, Sh.Seyitov, S.Ibragimov va B.Genjemuratov asarlari misolida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

lirik xronotopning xususiyatlari, badiiy tabiati, shoir uslubi, dunyoqarashini aniqlashdagi ahamiyati bo'yicha kognitiv qarashlarni o'rganish va tizimlashtirish;

qoraqalpoq lirikasida xronotopning manbalarini aniqlash;

hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy zamon va makon turlarini badiiy matn tahlillari asosida aniqlash va tasniflash;

shoirlar I.Yusupov, Sh.Seyitov, S.Ibragimov, B.Genjemuratovlarning asarlarida badiiy zamonning psixologik va siklli, badiiy makonning gorizontal va vertikal turlarining ifodalanishini struktur tahlil qilish va shu asosda mualliflarning poetik mahoratini ochib berish;

lirik she'r va turkumlarda badiiy zamon, makon kategoriyalarining xronotop va topoxronos sifatida uslubiy qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida shoirlar I.Yusupovning «Tanlangan asarlar. Uch jildlik. I, II, III jildlar» («Ta'nlamali shi'garmalari. Ush tomliq. I, II, III tomlar») (2018), Sh.Seyitovning «Yo'llar» («Jollar») (1987), S.Ibragimovning «Beshinchi fasl» («Besinshi mawsim») (1986), «Tanlangan she'rlar» («Ta'nlamali qosiqqlar») (2016), «Brno daftari» («Brno dápteri») (2021) B.Genjemuratovning «Tanlangan asarlari. She'rlar va poemalar» («Saylandi shi'garmalari. Qosiqqlar ham poemalar») (2012) kitoblari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** hozirgi qoraqalpoq lirikasida xronotopning badiiy tabiati va turlarini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Masalani o'rganishda struktur tahlil, germinenvtik-filologik, qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

---

№2. – Б.70-71; Dosimbetova A. Shawdırbay Seyitov lirikasında erkin qosıqlar. – Nókis: Ilimpaz, 2021; Оразымбетова М. Қарақалпақ поэзиясында лирикалық дүркинлердің поэтикасы. Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD) диссертациясы. – Нөкис, 2021; Тлеўниязова Г. Ҳазирги қарақалпақ лирикасында композициялық изленислер (1990-2010-жыллар). Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD) диссертациясы. – Нөкис, 2021.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lirik hisslarning paydo bo'lish va yuzaga chiqish vaqti sifatida shoir ichki makoniga ta'sir etish, lirik kompozitsiya tuzish, zamon va makon badiiy modelining yaratilishini ta'minlash jarayonida ichki hissiyotlarga singib, birikib ketish va shu orqali emotsional-ekspressiv mulohazalarni aks ettirishda cheksiz imkoniyatlar berish kabi kognitiv belgilarni o'zida mujassam etgan lirik xronotop shoirning individual uslubiy izlanishlari, dunyoqarashini yuzaga chiqaruvchi adabiy-estetik kategoriya sifatida ochib berilgan;

qoraqalpoq lirikasida xronotopning manbalari xalq og'zaki ijodi namunalaridan – naql-maqollar, xalq qo'shiqlaridan boshlanishi, ularda xronotopning ifodalanishi xalqona falsafa, dunyoqarash, etnopsixologiyaga aloqadorligi, XIX asrdagi qoraqalpoq mumtoz lirikasida xronotopning biografik, mavsumiy turlarining ko'proq ifodalanganligi, milliy lirikada ichki makonning paydo bo'lishi XIX asr mumtoz shoirlar ijodida lirik «men»ning shakllanishi va XX asrga kelib jahon lirikasida xronotop poetikasi yutuqlarining o'zlashtirilishi bilan bog'liq ekanligi asoslangan;

lirik xronotopga an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlar asosida shoir uslubiy o'ziga xosliklari nuqtai nazaridan ta'rif berilib, unda badiiy zamonning chiziqli, hozirgi, o'tgan, kelasi zamon singari psixologik va sutkalik (ayniqsa, tun), mavsumiy (ayniqsa, bahor, kuz) singari siklli, badiiy makonning ichki, tashqi, ochiq (yo'l singari), yopiq (uy, xona, yotoqxona, qabriston, tobut, tamaki qutisi, angishvona), chegara (ostona, darvoza, deraza) singari gorizontol hamda osmon, yer singari vertikal turlarining unumli qo'llanilishi asoslangan;

lirik she'r va turkumlar kompozitsiyasida badiiy xronotop (zamon-makon) nuqtai nazaridan zamonning, badiiy topoxronos (makon-zamon) nuqtai nazaridan makonning yetakchilik qilishi asoslangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

adabiy turlarda (lirika, epika, drama) xronotopning ifodalanish xususiyatlari, lirik xronotopning cheksizligi, uning lirik hissiyotlarga singdirilib yuborilishi, kompozitsiya tuzishdagi ahamiyati o'rganilgan;

qoraqalpoq lirikasida xronotopning manbalari xalq og'zaki ijodi namunalaridan – naql-maqollar, xalq qo'shiqlaridan boshlanishi xalqona falsafa, dunyoqarash, etnopsixologiyaga aloqadorligi, XIX asr qoraqalpoq mumtoz lirikasida lirik «men»ning paydo bo'lishi va shu orqali ichki makonning shakllanishi tarixiy, ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy sharoitlarga bog'liqligi, XX asrga kelib jahon she'riyati namunalarining badiiy ta'siri va adabiy o'zlashtirilishiga bog'liq ekanligi asoslangan;

hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy zamonning psixologik va siklli singari turlari tasniflangan;

badiiy makonning real, ichki va tashqi, ochiq va yopiq, vertikal (osmon va yer) turlari, yo'l, ostona, xona, qabriston topoxronoslari aniqlangan;

hozirgi qoraqalpoq lirikasini o'rganish va tahlil etish jarayonida xronotopning ifodalanishi shoir fenomeni, asosan, dunyoqarashi va uslubiy individualligiga qaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** unda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, foydalanilgan adabiy-nazariy ma‘lumotlarning ishonchli ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, nazariy xulosalar struktural tahlil, germenevtik-filologik, qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik tahlil usullariga asoslanganligi, nazariy fikr va tavsiyalarning amaliyotda keng qo‘llanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy zamon va makon tushunchalari bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlarni takomillashtirish va rivojlandirishda, kelgusida lirik qahramon obrazi, lirik kompozitsiya, lirik matn talqini masalalarini o‘rganishda, hozirgi qoraqalpoq lirikasida individual uslubiy izlanishlarni aniqlash va baholashda ilmiy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada taklif qilingan tadqiqot materiallari va natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim samaradorligini oshirishda, ayniqsa, adabiyot nazariyasi, hozirgi qoraqalpoq adabiyoti va adabiy jarayon, mustaqillik davri qoraqalpoq adabiyoti fanlari bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, adabiyotshunoslik atamalarining yangi lug‘atini tuzishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hozirgi qoraqalpoq lirikasida xronotop poetikasini taniqli shoirlar I.Yusupov, Sh.Seyitov, S.Ibragimov, B.Genjemuratov asarlari misolida o‘rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

lirik hislarning paydo bo‘lish va yuzaga chiqish vaqti sifatida shoir ichki makoniga ta‘sir etish, lirik kompozitsiya tuzish, zamon va makon badiiy modelining yaratilishini ta‘minlash jarayonida ichki hissiyotlarga singib, birikib ketish va shu orqali emotsional-ekspressiv mulohazalarni aks ettirishda cheksiz imkoniyatlar berish kabi kognitiv belgilarni o‘zida mujassam etgan lirik xronotop shoirning individual uslubiy izlanishlari, dunyoqarashini yuzaga chiqaruvchi adabiy-estetik kategoriya sifatidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F-1-005 «Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish» mavzusidagi loyihasini bajarishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 5-iyuldagi 275/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada, milliy she‘riyatimizda xronotop poetikasi bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlar takomillashtirilgan;

qoraqalpoq lirikasida xronotopning manbalari xalq og‘zaki ijodi namunalaridan – naql-maqollar, xalq qo‘shiqlaridan boshlanishi, ularda xronotopning ifodalanishi xalqona falsafa, dunyoqarash, etnopsixologiyaga aloqadorligi, XIX asrdagi qoraqalpoq mumtoz lirikasida xronotopning biografik, mavsumiy turlarining ko‘proq ifodalanganligi, milliy lirikada ichki makonning paydo bo‘lishi XIX asr mumtoz shoirlar ijodida lirik «men»ning shakllanishi va XX asrga kelib jahon lirikasida xronotop poetikasi yutuqlarining o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq ekanligi haqidagi ilmiy natijalardan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyida I.Yusupov, Sh.Seyitov, S.Ibragimov, B.Genjemuratovlarning hayoti va ijodi bo‘yicha

o‘tkazilgan ko‘rgazma va ekskurs darslarni tashkil etishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yil 31-marttagi 2-03/408-son ma‘lumotnomasi). Natijada, milliy adabiyotimizda lirik xronotop, uning adabiy hodisa sifatida shakllanishi va rivojlanishi haqidagi jamoatchilikning adabiy tushunchalari kengaytirilgan;

lirik xronotopga an‘anaviy va noan‘anaviy yondashuvlar asosida shoir uslubiy o‘ziga xosliklari nuqtai nazaridan ta‘rif berilib, unda badiiy zamonning chiziqli, hozirgi, o‘tgan, kelasi zamon singari psixologik va sutkalik (ayniqsa, tun), mavsumiy (ayniqsa, bahor, kuz) singari siklli, badiiy makonning ichki, tashqi, ochiq (yo‘l singari), yopiq (uy, xona, yotoqxon, qabriston, tobut, tamaki qutisi, angishvona), chegara (ostona, darvoza, deraza) singari gorizont, osmon, yer singari vertikal turlarining unumli qo‘llanilishi, lirik she‘r va turkumlar kompozitsiyasida xronotop (zamon-makon) nuqtai nazaridan zamonning, topoxronos (makon-zamon) nuqtai nazaridan makonning yetakchilik qilishi haqidagi nazariy xulosalardan Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasining yosh ijodkorlarga bag‘ishlangan seminar va mahorat darslarini o‘tkazishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar Uyushmasining 2023-yil 12-maydagi 61-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yosh ijodkorlarning lirik xronotopni anglashi va ifodalashdagi badiiy mahorati, xronotopning turlari haqidagi tushunchalari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 ta respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 127 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, o‘rganilish darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari belgilangan, ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari rejasi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan, natijalarning amaliyotga tadbiiq qilinishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Ishning birinchi bobi “**Xronotop va lirika: umumiy va kognitiv tushunchalar**” deb ataladi. Bobning “**Lirik xronotop: o‘rganilish tarixi, o‘ziga xosliklari**” deb nomlangan birinchi faslida lirik xronotopning jahon va rus, turkiy xalqlar adabiyotshunosligida o‘rganilish tamoyillari, o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilingan.

Makon va zamon kategoriyalarining birligi adabiyotshunoslikda rus olimi M.Baxtin tomonidan “xronotop” deb nomlandi<sup>9</sup>. Munaqqid xronotop adabiyotda inson obrazining tasvirlanishi, asarning janriy xususiyatlari xronotop negizida aniqlanishini romanlar misolida o‘rgandi.

Xronotop bo‘yicha umumiy va kognitiv tushunchalarning rivojlanishi asosida badiiy zamon<sup>10</sup> va badiiy makon<sup>11</sup> alohida kategoriyalar sifatida tadqiq qilindi. XX asr oxiri va yangi asr boshlariga kelib, har bir adabiy turdagi (epik, lirik, dramatik) xronotopning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash asosiy masalalardan biriga aylandi.

Adabiy turlardagi xronotopning turli xil shakllari rus (Z.Turaeva, V.E.Xalizev, A.B.Esin, N.Sholina, S.Kim, M.Dudorova, N.Shutaya, N.Lovchinskiy, E.Kulikova)<sup>12</sup>, o‘zbek (M.Umarova, N.Shodieva, B.Turaeva, U.Jo‘raqulov, U.Nazarov)<sup>13</sup>, qozoq (E.Tursinov, B.Maytanov, G.Muchnik, N.Juanishbekov, S.Ananyeva)<sup>14</sup> olimlari tomonidan har xil rakursda tadqiq qilingan.

<sup>9</sup> Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 504.

<sup>10</sup> Meyerhof H. Time in Literature. – Berkeley-Los Angeles: University of California Press, 1960; Rodrigues A. and etc. Studies on Time: Time in Literature. – Berkeley, Los Angeles: University of California Press, 1991; Тураева З. Категории времени. Время грамматическое и время художественное (на материале английского языка). – Москва: Высшая школа, 1979; Есин А.Б. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта. Наука, 2000; Умарова М. Тарихий драмада бадий вақт концепцияси (Шекспир ва Фитрат драмалари мисолида): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Шодиев Н., Тўраева Б. Бадий вақт ва унинг системаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2012; Ананьева С.В. Проблема художественного времени и ее воплощение в развитии сюжета. // Вестник КазГУ. – Алматы. 2000. - № 2 (36). – С. 110-116; Сагидуллаева Ж. Қарақалпақ повестьлеринде стиллик изленислер (1980-жыллар повестьлери мысалында). Фил.илим.канд.дисс. – Нөкис, 2010. – Б. 96-106.

<sup>11</sup> Ким Е.С. Художественное пространство в лирике Б.Пастернака. Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2001; Зотов С. Н. Художественное пространство – мир Лермонтова. Автореф.дис.док.филол.наук. – Ставрополь, 2001; Разумова Н. Е. Пространственная модель мира в творчестве А. П. Чехова: Автореф.дис.док.филол. наук. – Томск, 2001; Дудорова М. Категоризация пространства в поэтическом тексте: Дисс. канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2006; Ловчинский Н. Образы пространства в современной русской постмодернистской поэзии: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Волгоград, 2010; Куликова Е. Динамические аспекты пространства в лирике акмеистов: лейтмотивная поэтика: Автореф.дис.док.филол.наук [Электронный ресурс] – Новосибирск, 2011 // <http://www.dsLib.net>.

<sup>12</sup> Тураева З. Категории времени. Время грамматическое и время художественное (на материале английского языка). – Москва: Высшая школа, 1979; Хализев В.Е. Время и пространство. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999; Есин А.Б. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта. Наука, 2000; Шоломина Н. В. Художественное пространство и время в творчестве Роберта Шекли. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2000; Дудорова М. Категоризация пространства в поэтическом тексте: дисс. канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2006; Шутая Н. Типология художественного времени пространства в русском романе XVIII–XIX вв.: дисс. док. филол. наук. – Москва, 2007; Ловчинский Н. Образы пространства в современной русской постмодернистской поэзии: автореф.дис.канд.филол.наук. – Волгоград, 2010; Куликова Е. Динамические аспекты пространства в лирике акмеистов: лейтмотивная поэтика: Автореф.дис.док.филол.наук. – Новосибирск, 2011.

<sup>13</sup> Умарова М. Тарихий драмада бадий вақт концепцияси (Шекспир ва Фитрат драмалари мисолида): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Шодиев Н., Тўраева Б. Бадий вақт ва унинг системаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2012; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Гафур Ғулом номдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2015; Ўша муаллиф. Алишер Навоий «Хамса»сида хронотоп поэтикаси: филол.фан.бўйича фан доктори (DSc) дис. – Тошкент, 2017; Тўраева Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси (О.Ёқубов ва П.Қодиров романлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Назаров Ў. Омон Мухтор романларида бадий хронотоп муаммоси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2018.

<sup>14</sup> Турсунов Е.Д. Художественное время и пространство в айтысе. // Традиции и новаторство в художественном освоении действительности. – Алматы: Наука, 1981; Майтанов Б. Казак романы және психологиялық талдау. – Алматы, 1996; Мучник Г.М. Текст в системе художественной коммуникации: восприятие, анализ, интерпретация. – Алматы: Балауса, 1996; Джунаньшбеков Н.О. Проблемы современного сравнительного литературоведения. –

Dunyo va rus adabiyotshunosligida lirik xronotop muammosi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida maxsus o‘rganila boshladi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotchilar jahon adabiyotshunosligida M.Malone, Ya.Probsteyn, J.Kasanova singari olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida davriy nuqtai nazarda olib borilgan bo‘lsa<sup>15</sup>, rus adabiyotshunosligida V.E.Xalizev, A.B.Esin, N.Lovchinskiy, I.M.Jukova va N.K.Nejdanovalar yakka mualliflarning ijodidagi badiiy makon va zamonga e‘tibor qaratdi<sup>16</sup>.

Lirik xronotopning o‘ziga xos qirralari o‘zbek adabiyotshunosligida N.Shodiev, B.To‘raeva (lirik zamon masalasi), Q.Yulchiev (lirikada topoxronos), D.Xursanov (lirik xronotop poetikasi), qoraqalpoq adabiyotshunosligida Q.Orazimbetov (lirikada zamon va makon cheksizligi), A.Dosimbetova (Sh.Seyitovning erkin vazndagi she‘rlarida zamon va makon), M.Orazimbetova (lirik turkumlarda syujet va xronotop), G.Tleuniyazovalarning (lirik kompozitsiyada xronotop) ilmiy tadqiqotlarida gap boradi<sup>17</sup>.

Yuqorida keltirilgan ilmiy natijalarni o‘rganish borasida lirik xronotopning o‘ziga xos quyidagi xususiyatlari aniqlandi: 1) lirik xronotopni aniqlash boshqa adabiy turlarga qiyoslaganda murakkab, sababi, lirikada zamon va makon lirik qahramonning ichki tuyg‘ulariga shu qadar teran singib ketadi, natijada, ularni alohida ajratib ko‘rsatish murakkablashadi; 2) lirik xronotop asar kompozitsiyasini tuzishda katta ahamiyatga ega; 3) lirik xronotop cheksiz va keng imkoniyatlarga ega, shuningdek, lirik qahramonning fikrlari, tuyg‘ulari oldida hech qanday zamon va makon chegaralari bo‘lmaydi; 4) insonning ong osti hislari, tuyg‘ulari qandaydir kutilmagan vaziyatlarda yuzaga chiqadi. Ushbu tuyg‘ular yuzaga chiqqan vaqt va joy lirikaning tug‘ilishiga turtki berishi, shoirning psixologik kayfiyatiga ta‘sir etishi nazariy jihatdan asoslangan.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Qoraqalpoq lirikasida xronotopning manbalari”** deb nomlanadi. Qoraqalpoq lirikasida badiiy xronotopning tarixiy ildizlari xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq. Folklor asarlarida, xususan, naql-maqollarda xronotopning berilishi xalqning dunyoqarashi, jug‘rofiy joylashuvi, ruhiy olami,

---

Алматы, 1996; Ананьева С.В. Проблема художественного времени и ее воплощение в развитии сюжета // Вестник КазГУ. – Алматы, 2000, № 2.

<sup>15</sup> Malone M. That other life, so near in time and distance: Forms of Time and of the Chronotope in Great War poetry// [www.academia.edu](http://www.academia.edu); Probsteyn I. The River of Time Time-Space, History, and Language in Avant-Garde, Modernist, and Contemporary Russian and Anglo-American Poetry. – England: Academic Studies Press, 2017 // [www.degruyter.com](http://www.degruyter.com); Casanova J. Forms of the Chronotope in Fin-de-Siècle British Women’s Poetry. A thesis submitted to the University of Manchester for the degree of Doctor of Philosophy. 2019.

<sup>16</sup> Хализев В.Е. Время и пространство. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999; Есин А.Б. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта. Наука, 2000; Ловчинский Н. Образы пространства в современной русской постмодернистской поэзии: автореф.дис.канд.филол.наук. – Волгоград, 2010; Жукова И.М., Нежданова Н.К. Образы пространства и времени в русской поэзии XIX–XX веков. Монография. – Курган, 2012.

<sup>17</sup> Шодиев Н., Тўраева Б. Бадий вақт ва унинг системаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2012; Йўлчиев Қ. Ҳозирги ўзбек шеърлятида макон ва вақт категорияси (кичик лирик шеърлар мисолида). Филология фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2021; Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеърлятида хронотоп поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2020; Оразымбетов Қ. Ҳазирги каракалпак лирикасында көркем формалардың эволюциясы хэм типологиясы. – Нөкис: Билим, 2004; Dosimbetova A. Shawdırbay Seyitov lirikasında erkin qosıqlar. – Nókis: Ilimpaz, 2021; Оразымбетова М. Каракалпак поэзиясында лирикалық дүркинлердің поэтикасы. Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD) диссертациясы. – Нөкис, 2021.

zamon va makon qiymati negizida paydo bo‘ladi. Qumiq tilidagi naql-maqollardagi xronotopni tadqiq qiluvchilar J.Sulaeva, S.Adilova, qozoq olimi S.Sapargalievlarining mulohazalari bo‘yicha, ko‘chmanchi turkiy xalqlarning folkloridagi xronotop o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu ularning tez-tez makonlarini o‘zgartirishi bilan bog‘liq<sup>18</sup>.

Qoraqalpoq xalq maqollarida makon o‘zgaruvchan, zamon – cheksiz va sikllidir. Bu xalqning yashash sharoiti va iqlimi, turmush darajasi, hayot tarzi, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, inson umrining barcha tomonlarini, uning tirikchilik shakllarini, faoliyatini, olamga munosabatini o‘z ichiga qamrab oladi.

Xalq qo‘shiqdarida xronotopning ifodalanishi asarning janriy o‘ziga xosligi bilan bog‘liq ekanligi olimlar G.M.Molotova (uyg‘ur), S.Yu.Neklyudov (slavyan folklori) va A.V.Kudiyarovaning (Sibirdagi mongol, turkiy xalqlari) tadqiqotlarida keltirilgan<sup>19</sup>. Masalan, “Hákke qayda?” («Zag‘izg‘on qani?»), “Háy túyeler, túyeler” («Hoy tuyalar, tuyalar»), “Bádik” («Badik»), «Shaq shaqála» («Chaq chag‘alay») singari qoraqalpoq xalq qo‘shiqdarida folklor xronotopi noaniq, o‘zgaruvchan va cheksiz. Tarixiy jirlar, to‘lg‘ovlarda esa zamon va makon real tarixiy joylar, voqealar, sanalar orqali namoyon bo‘ladi. Bu o‘ziga xosliklar dissertatsiyada badiiy matn tahlillari misolida o‘rganilgan.

XIX asr qoraqalpoq mumtoz shoirlari asarlarida, eng avvalo, biografik xronotop ko‘zga tashlanadi. Taniqli olimlar N.D.Tamarchenko, V.I.Tyupa, S.N.Broytmanlarning fikr-mulohazalariga ko‘ra, ko‘pchilik asarlarda biografik zamon (tadqiqotda mualliflar «oddiy vaqt» deb atagan – Z.G.) qahramon hayotidagi fojeaviy qismat bilan parallel tasvirlanadi, ya‘ni inson hayotidagi qiyinchilik, iztirob, qayg‘ular biografik xronotop orqali ifodalanadi<sup>20</sup>. Ishda Kunxojaning “Jigirma beste” («Yigirma beshda»), Berdaq shoirning “Ómirim” («Umrim»), Utesh shoirning “Kórdim” («Ko‘rdim») singari she‘rlarida lirik qahramon hayotidagi qiyinchiliklar biografik xronotop orqali tasvirlansa, Kunxo‘janing “Kún qayda?” («Kun qayda?»), “Kórerseñ” («Ko‘rarsan»), Berdaqning “Jaz keler me?” («Yoz kelarmu?»), “Qashan ráhátlanadursañ” («Qachon rohatlanadursan»), “Kóringdi” («Ko‘ringdi») she‘rlarida mavsumiy xronotoplarning to‘g‘ri ma‘noda qo‘llanilishi bilan birga metaforik-simvolik obraz darajasiga ko‘tarilganligi ilmiy asoslangan.

XIX asr qoraqalpoq mumtoz shoirlari lirikasida (ayniqsa, publitsistik janrdagi she‘rlarda) obyektiv makon shakllari ko‘zga tashlanadi. Ular lirik qahramon harakat etgan yoki yashagan geografik joy (toponimik) atamaları (Ayırsha, Toqtas, Mantıq, Terbenbes v.h.) bilan beriladi va lirik qahramonning ichki makoniga (qalbiga) ta‘sir etadi. XIX asr qoraqalpoq lirikasini o‘rgangan olim Q.Jarimbetov XIV-XVIII asrlarda jirov-shoirlarning ijodida lirik “men”ning jamoatchilik dunyoqarashlardan o‘zini

<sup>18</sup> Сулаева Ж.А., Адилова С.Г. Пословицы и поговорки пространства и времени в кумыкском языке // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2014. – С. 3841-3845; Сапарғалиева С. Қазақ әлемінің дүниетанымдық түсиник ерекшеліктері [Электрон ресурс] // <http://oldconf.neasmo.org.ua/node>.

<sup>19</sup> Молотова Г.М. Хронотоп в уйгурском фольклоре (на примере дастана «Имир Горогли») // Вестник КазНУ. – Алматы, 2010. [Электронный ресурс] // [www.articlekz.com](http://www.articlekz.com); Неклюдов С.Ю. Время и пространство в былинне // Славянский фольклор. – Москва: Наука, 1972. – С. 18-28; Кудиярова А.В. Художественно-стилевые традиции эпоса монголоязычных и тюркоязычных народов Сибири. – Москва, 2002.

<sup>20</sup> Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория литературы. В двух томах. Том I. – Москва: Academia, 2004. – С. 182. [Электронный ресурс] // <https://www.twirpx.com>.

ajratib olmaganligini, yakka ijodkorga xos lirik xususiyatlar XIX asrdagi qoraqalpoq lirikasida to'lig'i bilan namoyon bo'lganligini ta'kidlab o'tadi<sup>21</sup>. Ishda ichki makonning paydo bo'lishi lirik "men"ning shakllanishi bilan uzviy bog'liq ekanligiga asoslangan holda, qoraqalpoq lirikasida ichki makonning to'laqonli shakllanishi XIX asrning mumtoz shoirlari ijodida aniq namoyon bo'lganligi asoslangan.

Shuningdek, bu bobda hozirgi qoraqalpoq shoirlarining xronotopga munosabati, zamon va makonni idrok etishi, dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishida milliy manbalar bilan birga dunyoviy manbalarning ahamiyati masalasi yoritilgan.

Ikkinchi bob **"Hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy zamon masalasi"** deb nomlanadi. Adabiyotshunoslikda badiiy zamon va makon uyg'unligi ikki xil shaklda yuzaga kelgan: xronotop – badiiy zamon va makon (M.Baxtin) va topoxronos – badiiy makon va zamon (M.Nikitin). O'zbek adabiyotshunosi Q.Yulchiev bu ikki tushunchaning bir-biriga qarama-qarshi emasligini, birida vaqtga, ikkinchisida makonga diqqat qaratilganligini ta'kidlagan<sup>22</sup>. Shu asosda ularning ikki turi ham hisobga olindi, ya'ni lirikada vaqt yetakchi bo'lishi (ikkinchi bobda) xronotop, makonning birinchi o'ringa chiqishi (uchinchi bobda) topoxronos sifatida tadqiq qilindi.

Bobning birinchi fasli **"Hozirgi qoraqalpoq lirikasida psixologik vaqtning ifodalanish xususiyatlari"** deb nomlanib, unda taniqli olimlar G.N.Pospelov, N.D.Tamarchenko, V.I.Tyupa, S.N.Broytman, A.B.Esin, V.E.Xalizev, B.Turaeva, O.Egorov, I.M.Jukova, N.K.Nejdanovalarning<sup>23</sup> lirik zamon bo'yicha tasniflashlari o'rganildi. Shu asosda hozirgi qoraqalpoq lirikasida eng ko'p qo'llaniladigan psixologik vaqt va siklli vaqt turlariga to'xtalib o'tildi. Psixologik vaqt – lirik qahramonning qalbidagi ruhiy kechinmalari, fikr-mulohazalarini ifodalovchi, tashqi voqelikka munosabat bildiruvchi "ong oqimidagi" vaqt. Bu bobda uning grammatik kategoriyalar (o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllari) hamda leksik birliklar orqali bildirilishi asoslangan. Masalan, I.Yusupovning "Keshki inirde uruqliqtan" («Oqshom qamishzordan») she'rida kichik bir syujet (yosh bolaning o'zining opasidek bo'lib qolgan hamqishloq qizga mehri o'zgacha, unga erkalik qiladi, qayerga borsa yonidan jilmaydi. Bir kuni shu qiz bir otliq odam bilan qochib ketadi. Bola bo'lsa bunga xafa bo'ladi) keltirilgan, dastlabki ikki qatorda lirik qahramonning hozirgi zamondagi vaqti (oqshom), o'rni (qamishzor) berilgan. Shoirning "Kegeyli boynda" («Kegayli bo'yida») she'rida zag'izg'onning (zag'izg'on – Vatanning bir bo'lagi, ramzi) tovushi, "At zangisi zinildar" («Ot zangisi jiringlar») she'rida ot zangisining tovushi

<sup>21</sup> Жәримбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийәтлери хәм раўажланыў тарийхы. Монография. – Нөкис: Билим, 2004. – Б. 25-26.

<sup>22</sup> Йўлчиев Қ. Ҳозирги ўзбек шеъриятида макон ва вақт категорияси (кичик лирик шеърлар мисолида). Филология фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2021. –Б. 33-34.

<sup>23</sup> Пospelов Г.Н. Время и пространство в литературе. // Введение в литературоведение. – Москва: Высшая школа, 1988. – С. 73-75; Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория литературы. В двух томах. Том I. – Москва: Academia, 2004. – С.179-184; Есин А.Б. Время и пространство. // Принципы и приёмы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта. Наука, 2000. – С. 64-65; Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2002. – С. 248; Тўраева Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси (О.Ёкубов ва П.Қодиров романлари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 12; Егоров О.Г. Русский литературный дневник XIX века. История и теория жанра. Исследование. – Москва: Флинта, 2017; Жукова И.М., Нежданова Н.К. Образы пространства и времени в русской поэзии XIX–XX веков. Монография. – Курган, 2012. – С. 123-124.

lirik qahramonning tuyg'ulariga qanday ta'sir qilgan bo'lsa, bu she'rda ham o'tgan voqealarning xotirlanishiga (retrospektsiyaga) bir guruh to'rg'ayning uchib ketishi turtki bo'lgan:

Keshki inirde urıqlıqtan  
Bir top torg'ay ushti ketti...  
Senin qız bolg'an shag'ların  
Yadlarımá tústi ketti...<sup>24</sup>.

She'rda kichkina bola tilidan opasi bilan xayrlashgan vaqtdagi ruhiy holati, kechinmalari mahorat bilan berilgan. Bunda hozirgi zamon shoir hislariga ta'sir etuvchi (povod) narsalarning yuzaga chiqish vaqti hisoblanadi. Bu orqali lirik qahramon o'tmishga (retrospektsiya) yoki kelajakka (prospektsiya) murojaat qiladi. Natijada psixologik vaqt shakllari bir-biri bilan qorishib ketadi va murakkab yaxlit badiiy zamon tizimini hosil qiladi.

Hozirgi qoraqalpoq lirikasida hozirgi zamon o'zining murakkabligi bilan ajralib tursa, o'tgan zamon ko'pchilik vaziyatlarda lirik qahramonning xotiralari (retrospektsiyasi) shaklida yuzaga chiqadi. Sh.Seyitov va I.Yusupov she'rlarida psixologik vaqtning qo'llanilishidagi o'xshash tomonlari (hozirgi va o'tgan zamonlarning birgalikda, qator qo'llanilishi) va o'ziga xosliklari (bir vaqt kategoriyasining ikkinchisiga o'tish Sh.Seyitov lirikasida aniq ko'rinib tursa, I.Yusupov she'rlarida ilg'ab bo'lmas darajada juda tez namoyon bo'ladi. Sh.Seyitovning "Joralar" («Jo'ralar»), «Yadtag'ı mór» («Xotiradagi muhr») "Balalıqtag'ı dostıma" («Bolalikdagi do'stinga»), "Umitilg'an albomnan" («Unutilgan albomdan») I.Yusupovning "G'azlarđın qanatında" («G'ozlarning qanotida»), "At zángisi zıńıldar" («Ot zangisi jiringlar»), "Keshki inirde urıqlıqtan" («Oqshom qamishzordan») she'rlarining badiiy tahlili orqali aniqlandi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "**Siklli vaqtning badiiy vazifasi**" deb nomlanadi. Siklli vaqtning sutkalik (kun, tun, oqshom, tong) va mavsumiy (bahor, yoz, kuz, qish) singari turlari uchraydi. Ayniqsa, hozirgi qoraqalpoq lirikasida tun va kuz xronotoplarining poetik xizmati badiiy asarning g'oyasi va mualliflarning individual uslubiy izlanishlari bilan bog'liq o'rganilgan.

"Mifologiyada tun yovuz kuchlarning hukmronlik etish vaqti..." (A.B.Esin) hisoblansa, keyingi davrlarda tun xronotopining badiiy qamrovi kengaydi. Qoraqalpoq shoirlari I.Yusupov va Sh.Seyitov lirikasidagi tun xronotopi: 1) Ilhomlanish, ijod bilan shug'ullanish vaqti; 2) Tabiat bilan muloqot, peyzaj tasviri vaqti; 3) Bolalik yillarni, armonli muhabbatni eslash vaqti; 4) Iqror bo'lish, aql va hislarning kurash vaqti ekanligini matn tahlili negizida aniqlandi. Taniqli rus shoiri A.S.Pushkinning va o'zbek yozuvchisi A.Muxtorning ijodida tun fikr-mulohazalar vaqti («Stixi, sochinennie nochyu vo vremya bessonitsı»<sup>25</sup> yoki «Uyqu qochganda... (Tundaliklar)<sup>26</sup>»), A.Axmatova lirikasida bezovtalanish, sog'inch («Podushka uje goryacha...»<sup>27</sup>), o'zbek shoiri Sh.Raxmon lirikasida tun xronotopi peyzaj tasviri bilan

<sup>24</sup> Юсупов И. Таңдамалы шығармалары. Үш томлық. I том. Нөкис: Билим, 2018. – Б. 239.

<sup>25</sup> Пушкин А.С. Собрание сочинений в 10 томах. – Москва: ГИХЛ, 1959-1962. Том 2. Стихотворения 1823-1836. – С. 318. Электронная публикация. Версия 6.0. 2019 г. // <https://www.rvb.ru>

<sup>26</sup> Мухтор Асқад. Уйқу қочғанда... (Тундалиқлар). – Тошкент: Маънавият, 2005.

<sup>27</sup> Ахматова А. Собрание сочинение в шести томах. Том 1. – Москва: Эллис Лак, 1988. – С. 24.

qator qo‘llanilganligi («*Tun* kelar, qadimiy osoyishta *tun*, oy haydar bulutlar – tevalarini, sanoqsiz qoramtir qalqonlar bilan daraxtlar yashirar mevalarini»<sup>28</sup>) qiyosiy tahlil qilindi.

S.Ibragimov va B.Genjemuratovlarning she‘rlarida qorong‘ulikka olov yoqishga talpinadigan lirik qahramon obrazi diqqatga sazovor. B.Genjemuratovning lirik qahramoni tunga sig‘may, uni yorug‘ qilish uchun olov yoqishga (grek mifologiyasidagi Prometey olovi g‘oyasiga uyg‘un) harakat qilsa, S.Ibragimovning lirik qahramoni shu tunning ham, olovning ham davomli bo‘lishini, ushbu tunda yonib kul bo‘lishni, qayta-qayta yonishni (Feniks mifologik obraziga uyg‘un) xohlaydi. Demak, hozirgi qoraqalpoq lirikasida tun xronotopning ushbu badiiy xususiyatlarini qoraqalpoq shoirlarining dunyo adabiyotining poetik an‘analari va obrazlaridan badiiy ta’sirlanishi bilan bog‘liq uslubiy izlanishlar sifatida baholasa bo‘ladi.

